

**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**

**60811400 - Organik qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va  
qayta ishlash bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari**

**ЎЗР ОУМТВ**

Буйруқ № 367

21 08 2023 йил

**Toshkent-2023**

**ISHLAB CHIQILGAN:**

Toshkent davlat agrar universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023 yil « 21 » avgust dagi 367 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/p		Bet
1.	60811400 - Organik qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tasnifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1.	60811400 - Organik qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	60811400 - Organik qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi.....	4
1.2.1.	60811400 - Organik qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari .....	4
1.2.2.	60811400 - Organik qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining subyektlari va obyektlari .	5
1.2.3.	60811400 - Organik qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari .....	5
1.2.4.	60811400 - Organik qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	60811400 - Organik qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar .....	8
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	8
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	8
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	9
2.3.1.	Kvalifikatsiyalar.....	9
2.3.2.	60811400 - Organik qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar .....	9
2.3.3.	60811400 - Organik qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi.....	9
	Bibliografik ma'lumotlar.....	11
	Kelishuv varag'i .....	12

## **1. 60811400 - Organik qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tasnifi**

60811400 - Organik qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. 60811400 - Organik qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash bakalavriat ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi **60811400 - Organik qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv - tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. 60811400 - Organik qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi**

#### **1.2.1. 60811400 - Organik qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari**

60811400 - Organik qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash ta'lim yo'nalishi - Qishloq xo'jaligi ta'lim sohasiga oid yo'nalish bo'lib, davlat aksionerlik va xususiy kompaniyalar (firmalar) ishlab chiqarish korxonalari va birlashmalari, qishloq xo'jaligining turli soha va tarmoqlarida faoliyat olib borish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari belgilash, klaster, fermer xo'jaliklarida va tomorqa yer egalari organik qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlashni tashkiliy masalalar yechimini hozirgi zamon talablari qonuniyatlari va zamonaviy konsepsiyalari asosida ishlab chiqarish va amalga oshirish bilan bog'liq kompleks masalalar bilan kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

- fan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasidagi yo'nalish bo'lib, sifat tizimini tashkil etish, organik mahsulotlarini yetishtirish saqlash va qayta ishlashda standartlashtirish, sertifikatlashtirish hamda mahsulot sifati va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ishlab chiqarish, qayta ishlash, tadqiq qilishga yo'naltirilgan vositalar, usullar majmuasini qamrab oladi.

- fan va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasi yo'nalishi bo'lib, yer, suv, energetik va moddiy - texnika resurslaridan samarali foydalanishni oshirish maqsadida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini organik talablarga mos standartlashtirish va sertifikatlashtirish;

- organik qishloq xo'jaligi mahsulotlarini metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish jarayonlarini optimallashtirish;



- organik qishloq xo'jalik mahsulotlarini sifatini oshirish, kasbiy faoliyatida texnik vositalardan oqilona foydalanish usul va uslublari yig'indisini o'z ichiga oladi.

**1.2.2. 60811400 - Organik qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining subyektlari va obyektlari:**

- tegishli barcha davlat va nodavlat korxonalari;
- organik qishloq xo'jalik va oziq-ovqat korxonalarida metrologik ta'minot;
- organik qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlari, mahsulot sifati va xavfsizligiga qo'yiladigan talablar;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlashni rivojlanishida tizimli yondashuv tamoyillarini tadbqiq etish, davlat va mahalliy boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari;
- standartlashtirishni tashkil etishni nazorat qilish, me'yoriy hujjatlar, mahsulot sifatini sinash va nazorat qilish;
- mahsulotni sifati va xavfsizligini nazorat qilish, tizimli yondoshuv mexanizmlari, tovarlarni ekspertiza qilish.
- organik qishloq xo'jaligi mahsulotlarini standartlashtirish va sertifikatlashtirish jarayonlari;
- yer, suv, energetik va moddiy – texnika resurslari, standartlashtirish va sertifikatlashtirish, biologik vositalar;
- texnik asbob uskunalari;
- qishloq xo'jalik tizimidagi ishlab chiqarish jarayonlari;
- ilmiy tadqiqot jarayonlari;
- qishloq xo'jalik mahsulotlarini standartlashtirish va sertifikatlashtirish tashkilotlarining boshqaruv tizimlari.

60811400 - Organik qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriyat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat turlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

**1.2.3. 60811400 - Organik qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari**

- *tashkiliy-boshqaruv faoliyatida;*
- *ishlab chiqarish va texnologik xizmat ko'rsatish faoliyati;*
- *axborot-tahliliy faoliyati;*
- *Foydalanish va servis xizmat ko'rsatish;*
- *loyihaviy-konstruktorlik;*
- *Tadbirkorlik faoliyatida.*

**1.2.4. 60811400 - Organik qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.**

**Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va texnologik xizmat ko'rsatish faoliyatida:**

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;
- tashkiliy va korxonalar faoliyatini strategik rivojlantirishda zamonaviy texnika va texnologiyalarni qo'llash orqali boshqarish;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlashni tashkil etish va uni boshqarish;
  - namunaviy texnologik hujjatlarni ishlab chiqish va ularni maqsadli qo'llash;
  - standartlar loyihalarini, uslubiy va me'yoriy materiallarni, texnikaviy hujjatlarni ishlab chiqishda, ishlab chiqilgan loyiha va dasturlarni amalga oshirishda qatnashish;
  - korxonalar va tashkilotlarda sifat boshqaruvini joriy qilish;
  - organik qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlarini standartlash va sertifikatlash;
  - korxonalarda metrologik xizmatni tashkil etish;
  - ish joylarini rejalashtirish, loyihalashtirish va tashkil etish;
  - mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va ularni samarali boshqarish chora tadbirlarini ishlab chiqish;
  - kasbga oid muammolar yechimlarni amaliyotga tatbiq etish, ishlab chiqarish jarayonida sifatini boshqarish;
    - organik qishloq xo'jalik va oziq-ovqat korxonalarida sifat tizimini tashkil etish;
    - organik qishloq xo'jalik va oziq-ovqat korxonalarida metrologik ta'minot;
    - organik qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlarini ekspertizadan o'tkazish;
    - organik mahsulotni sifati va xavfsizligini nazorat qilish;
    - organik mahsulotni tarkibi va sifatini tekshirish va baholash;
    - tizimli yondoshuv mexanizmlarini tatbiq etish.
  - o'rnatilgan talablarga, amaldagi me'yorlar, qoidalar va standartlarga rioya qilishni nazorat qilish;
    - sifatni boshqarish tizimlarini amalda o'zlashtirishda qatnashish;
    - metrologik ta'minot va texnik nazorat bo'yicha ishlar olib borish;
    - zamonaviy o'lchash, sinash va nazorat usullaridan hamda mahsulot boshqaruvidan foydalanish;
      - korxonalarida sifat tizimini joriy etishni amalga oshirish;
      - uchastka, sex, bo'limlarda sifat nazoratini amalga oshirish, amaldagi ishlab chiqarish sexini ekspluatatsiya qilish;
      - xom ashyo, yordamchi materiallar va mahsulotlarning sifatini nazorat qilish usullarini ishlab chiqish;
      - sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha strategik rejalarni ishlab chiqish va sifat tizimlarini joriy etish;
      - konstruktorlik va texnologik hujjatlar tarkibiga kiradigan rejalar, dasturlar hamda nazoratlar, sinovlar va o'lchashlarni bajarish metodikalar, asbob-uskunalarini ekspluatatsiya qilish bo'yicha yo'riqnomalar va boshqa matnli hujjatlarni ishlab chiqishda qatnashish;
      - kasbiy etika kodeksiga rioya qilish **qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.**

#### **Axborot-tahliliy faoliyatida:**

- zamonaviy axborot texnologiyalardan ishlab chiqarish va texnologik xizmat ko'rsatish faoliyati foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
  - organik qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish va saqlash va qayta ishlashda qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish;
    - texnologik jarayonlarni bajarish sifatini nazorat qilish;
    - zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarni amaliyotda keng qo'llash;
    - ilg'or texnologik jarayonlarni qo'llash;
    - ilmiy asoslangan tizimlarni qo'llash va tavsiyanomalar berish;
    - yangi samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va oqilona foydalanish;
    - tabiiy resurslarni muhofaza qilish va hayot faoliyati xavfsizligi qoidalarini ta'minlash.
    - tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;



- loyihalar samaradorligini baholash;

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

-texnik vositalar, jarayonlar, sinov qurilmalari, standartlar va yangi turdagi sifatli organik mahsulotlarni yetishtirish, saqlash va qayta ishlashda sifat tizimlari joriy etishni amaliyotga tatbiq etish;

-organik mahsulot turlari bo'yicha, meva-sabzovotchilikda, polizchilikda, chorvochilikda, ushbu mahsulotlarni yetishtirish, saqlash va qayta ishlashda ilmiy tadqiqotlar olib borish;

-tuproq strukturasi tahlil qilishda tadqiqot olib borish;

-texnik vositalar, sifat tizimlari, jarayonlar, sinov qurilmalari, standartlar va yangi turdagi sifatli mahsulotlarni amaliyotga tatbiq etish, mashinalar va avtomatlashtirilgan liniyalarni nazoratdan o'tkazishda zarur bo'lgan tashkiliy ishlarda ishtirok etish;

-O'zbekistonda va xorijda chop etilgan organik mahsulotlarni sifat tizimiga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;

-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

-mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan malumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

-ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish **qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.**

#### **Foydalanish va servis xizmat ko'rsatish faoliyatida;**

- organik mahsulotlarni sifatini ta'minlash va ularni nazorat qilish;

- organik mahsulotlarni ekspertizadan o'tkazish va xavfsizligini ta'minlash;

- mahsulotlarni organik standart talablariga mosligini ta'minlashda sertifikatlashtirishni amalga oshirish;

- organik mahsulotlarni etishtirish, saqlash va qayta ishlashda texnik xizmat ko'rsatishni tadqiq qilish;

- mehnat unumdorligini o'lchash va uni oshirish imkoniyatlarini aniqlash;

- bajarilayotgan tajriba-konstruktorlik va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, axborot va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiq qilish;

- organik mahsulot sifatini yaxshilash sohasidagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish usullarini bilish;

-organik mahsulot saqlash va qayta ishlash korxonalarida sifat ekspertizasini amalga oshirish;

-organik mahsulotlarni tayyorlashda sifatni oshirish, ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish;

- asbob-uskunalar, qurilmalar, mexanizmlar va jihozlar, ularning ishchi qismlari parametrlari va ish holatini tashxis sinovlaridan o'tkazish **qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.**

#### **Loyihaviy-konstruktorlik faoliyatida:**

- organik mahsulotni saqlash va qayta ishlashda texnologik reglament asosida ishlab chiqarish jarayonlarini tanlash, xom ashyolarga ishlov berish va mahsulotlarni ishlab chiqarish loyihasini tuzish;

- namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;

- avtomatlashtirilgan tizimlarning instrumental vositalari va muhitlarini rivojlantirish va ulardan foydalanish;

- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

- amaliyotda axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy paradigma va metodologiyalarni, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash **qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.**

#### **Tadbirkorlik faoliyatida:**

-organik mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash soha doirasida yangi biznes - loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;

-soha doirasida biznesni tashkil etish, eksport ulishini oshirish bo'yicha biznes- rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

## **2. 60811400 - Organik qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar**

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.
- ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ishlashga;
- tegishli bakalavriat yo'nalishi doirasida tanlangan mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirish.

### **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- organik standart talabalar asosida mahsulotlar yetishtirish, saqlash va qayta ishlash bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, standartlashtirish Davlat tizimi qoidalari va strukturasi, O'zbekiston Milliy standartlashtirish tizimi, standartlashtirishning huquqiy asoslari, standartlarni yaratish, yo'riqnoma; kodlashtirish, unifikatsiya, agregatlash usullarini qo'llash;
- sertifikatlashtirish Milliy tizimi, mahsulotlarni sertifikatlashtirish, sertifikatlashtirish chizmalari, sertifikatlashtirish tartiblari, sertifikat turlari, texnik jihatdan tartibga solish, texnik reglamentlarni ishlab chiqish, xavfsizlik ko'rsatkichlarni ta'minlash;
- organik mahsulot yetishtirish talablarini bilish;
- organik mahsulot saqlash va qayta ishlash talablarini tahlil qila olish;
- qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda sifatni boshqarish, asosiy sifat ko'rsatkichlar, ularning sifatini ta'minlash, nazorat qilish,
- sifatli tovarlar ishlab chiqarishni boshqarish, xom-ashyoning zahiralarni qayta ishlashda unumli foydalanish usullari;
- organik qishloq xo'jaligi mahsulotlarini standartlashtirish va sertifikatlash bo'yicha maxsus bilimlarni shakllantirishi kerak;
- paxtani xom-ashyosini standartlashtirish va sertifikatlashtirish bo'yicha bilimlarni egallash va bilish;
- sifat menejmenti tizimlarini baholash tamoyillari va uslublari, sifat menejmenti tizimlarini boshqarishda statistik usullar, statistik uslublarini ishlab chiqish va joriy qilish, sifatini o'lchash va yaxshilash tendensiyalarini aniqlash;
- fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarish jarayonlariga tadbiiq qilish;
- dala ekinlarining eng serhosil navlarini tanlash, yetishtirish texnologiyalarini hamda ko'paytirish usullari bo'yicha fermer xo'jaliklari shaxsiy tomorqa egalariiga maslahat berish;
- identifikatsiya va identifikatsiya strukturasi tushunchasi, tovarlarni identifikatsiya qilish usullari, me'yorlari va vositalari, qalbakilashtirish tushunchasi, tovarlarni identifikatsiya va qalbakilashtirish turlarini o'rganish, qalbakilashtirish vositalari bilan tanishish va ularni aniqlash usullari, qalbakilashtirish oqibatlarini o'rganish va ularning oldini olish usullari, tovarlarni qalbakilashtirish usullari va ularni aniqlash, tovarlarni identifikatsiyalash, mahsulotni



qalbikilashtirish usullari va ularni aniqlash, tovarlarni identifikatsiyalash, mahsulotni qalbikilashtirish oqibatlarini o'rganish, mahsulotni tarkibi va sifatini tekshirish va baholash, ekspertiza turlari, tovarlarni ekspertizadan o'tkazish, qishloq xo'jalik va oziq-ovqat tovarlarini tarkibini aniqlash va ekspertizadan o'tkazish, mahsulotlarning sifat va xavfsizlik bo'yicha ekspertiza qilish, O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan va tashqaridan keltirilayotgan mahsulot va tovarlarni sertifikatlashtirish va sinash, mahsulotlarni sinash usullari, mahsulotlarni sinash bo'yicha me'yoriy hujjatlar, mahsulotni deklaratsiya qilish, mahsulotni muvofiqlik sertifikat, sanitar gigienik sertifikat, fitosanitar va boshqa turdagi sertifikatlar, mahsulotlarni sinash usullarini tanlash, sinov natijalarini rasmiylashtirish va baholash;

### 2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga quyidagi talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligida kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlar – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratilgan.

#### 2.3.1. Kvalifikatsiyalar: texnik, texnolog, agronom

#### 2.3.2. 60811400 - Organik qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	5280	176
Tanlov fanlar	1140	38
Malakaviy amaliyotlar	660	22
Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4

#### 2.3.2. 60811400 - Organik qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T.r	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>5280</b>	<b>176</b>	
1.01	O'EYTB1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	DINB1204	Dinshunoslik	120	4	2

1.03	FALB1504	Falsafa	120	4	5
1.04	XJTNB1108	Xorijiy til	240	8	1,2
1.05	O'T O'SQB1204	O'zbek (rus) tili: O'zbek tilini sohada qo'llash	120	4	2
1.06	JMSB1104	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	1
1.07	OMTB1104	Oliy matematika	120	4	1
1.08	FIZAGMB1104	Fizika va agrometeorologiya	120	4	1
1.09	BO'FZB1108	Botanika va o'simliklar fiziologiyasi	240	8	1
1.10	ANFKBKB1106	Analitik, fizkolloid va bioorganik kimyo	180	6	1,2
1.11	QXAKTB1304	Qishloq xo'jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalar	120	4	3
1.12	TPOO'G'B1206	Tuproqshunoslik va organik o'g'itlar	180	6	2
1.13	OQXMBB1206	Organik qishloq xo'jalik mahsulotlari biokimyosi	180	6	2
1.14	ODHMELB1308	Organik dehqonchilik va melioratsiya	240	8	3,4
1.15	OOOMSBB1304	Organik oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi va sifati	120	4	3
1.16	OMVSB1308	Organik meva-sabzavotchilik	240	8	3,4
1.17	OO'SHB1308	Organik o'simlikshunoslik	240	8	3,4
1.18	CHOMICHB1308	Chorvachilikda organik mahsulotlarni ishlab chiqarish	240	8	3,4
1.19	OQXBHB1406	Organik qishloq xo'jaligida biologik himoyalash	180	6	4
1.20	OMICHTB1510	Organik mahsulotlar ishlab chiqarishda xalqaro talablar	300	10	5,6
1.21	OQXTSJTBS1512	Organik qishloq xo'jaligida standartlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish	360	12	5,6
1.22	QXGGSB1606	Qishloq xo'jaligida GLOBAL GAP standarti	180	6	6
1.23	OQXSBAB1710	Organik qishloq xo'jaligida sifatni boshqarish va auditi	240	8	7,8
1.24	OQXMSQITB1710	Organik qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi	300	10	7,8
1.25	OOXBIB1708	Oziq-ovqat xavfsizligi va bojxona ishi	240	8	7,8
1.26	OQXMSOB1708	Organik qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash omborlari	240	8	7,8
1.27	OMMTM1806	Organik mahsulotlar muvofiqligini boholash	180	6	8
2.00		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>1140</b>	<b>38</b>	
2.00		Tanlov fanlar	1140	38	3,4,5,6,7,8
		<b>Jami</b>	<b>6420</b>	<b>214</b>	
	MALAMAL1222	Malakaviy amaliyotlar	660	22	
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4	8
		<b>Jami</b>	<b>780</b>	<b>26</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

## Bibliografik ma'lumotlar

UO'K 002: 664.8

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

Organik mahsulotlar yetishtirish, organik qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini standartlashtirish, organik mahsulotlarni saqlash, qayta ishlash, mahsulotlar biyokimyoviy tarkibning o'zgarib borishi, sertifikatlash, sinflash, sifat, tadqiq qilish usullari, sifat menejment tizimi, audit, boshqarish, markirovka, shtrix kodlari, raqobatbardosh, nazorat sistemasi, xom-ashyo, zaxira, assortiment, usullar, texnik reglament, texnik jihatdan tartibga solish, xavfsizlik menejment tizimi, qalbakilashtirish, identifikatsiya, kimyoviy-texnik tahlil, tasnif, noorganik va organik tovarlar, organik oziq-ovqat mahsulotlari, ekspertiza, xavfsizlik, mikrobiologiya, sanitariya, gigiena, sinov qurilmalari, mahsulotlarni sinash.



Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti



Birinchi prorektor S.Ya. Islamov

2023 yil « 10 » 07

KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi



Direktor S.H. Yakubov

2023 yil « 21 » 07

M.O'



“Qishloq xo'jaligida standartlashtirish markazi” DUK

direktori A.T. Isaqov

2023 yil « 18 » 07

M.O'

“Standartlashtirish va sifatni boshqarish ilmiy maslahat markazi” MCIJ

direktori N.M. Ergasheva

2023 yil « 19 » 07

M.O'



Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

rektor K. Komilov

2023 yil « 20 » 07

M.O'

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**  
**60811400- Organik qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash**  
**bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining ishlab**  
**chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Toshkent vil.

“10” 07 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori, prof. S.Y.Islamov, Toshkent davlat texnika universiteti rektori, professor S.M.Turobjonov, Toshkent kimyo texnologiya instituti rektori, professor B.Sh.Usmonov birgalikda TDAUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishi hamda magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o'quv reja mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60811400- Organik qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash bakalavriat ta'lim yo'nalishi.

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 iyundagi “Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida”gi PQ-279-son Qarorlariga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari xamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**Toshkent davlat agrar universiteti**  
**birinchi prorektori, professor**

**S.Islamov**

**“Qishloq xo'jaligida standartlashtirish**  
**markazi” DUK direktori**

**A.T.Isaqov**

**Andijon qishloq xo'jaligi va**  
**agrotexnologiyalar instituti rektor**

**K.Komilov**